Шунингдек, ҳуқуқий аниқлик принципининг ўзига хос жиҳатлари ҳақида, ҳуқуқий аниқлик принципининг амалиётга кенг тадбиқ этилиши натижасида кутилиши мумкин бўлган натижалар баён этилган. Ҳуқуқий аниқлик принципининг ҳуқуқий тартибга солишнинг барча соҳалари, барча тармоқлари учун зарурий аҳамиятга эга эканлиги ҳамда барча ҳуқуқ ижодкорлари учун мажбурий аҳамиятга эга бўлган принцип сифатида амал қилиши Ўзбекистон Республикасининг қонун ижодкорлиги соҳасидаги фаолияти учун зарур эканлиги бўйича муаллиф фикри тегишли тартибда баён этилган ҳамда айрим мисоллар орқали ҳуқуқий аниқлик принципининг зарурати ҳақида сўз юритилади.

Ҳуқуқий аниқлик принципи юзасидан ҳуқуқшунос олимларнинг ва муаллифнинг фикрлари ва таҳлилий маълумотлари келтириб ўтилган.

Шу билан биргаликда ҳуқуқий аниқлик принципининг ўзига хос хусусиятлари ҳақида маълумотлар баён этилган.

Калит сўзлар: Ҳуқуқ принциплари, ҳуқуқий аниқлик принципи, ҳуқуқ ижодқорлиги, қонунийлик, фуқароларнинг қонун олдида тенглиги, инсонпарварлик, демократизм, одиллик, ҳуқуқни қўллаш

Қонунларни яратиш ва уларни амалиётга тадбиқ этишдан олдин қонун ижодкорлиги жараёнида муҳим бўлган қоидаларга амал қилиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бу қоидалар ҳуқуқ принциплари шаклида майдонга келади ва ҳар қандай қонун лоиҳаси ишлаб чиқиляётганда мазкур ҳуқуқ принципларига қатий амал қилиш, келгусида яритилаётган ва амалга тадбиқ этиляётган қонунларнинг мазмунини ва самарадорлигининг мезонини белгилаб беради.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг мазмунидан қуйидаги ҳуқуқий принципларни, яъни ҳуқуқ устунлиги, демократизм, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларининг олий қадрият эканлиги, халқаро ҳуқуқнинг умумэтироф этилган қоидалари ва нормаларининг амал қилиши, Конституция ва қонунлар устуворлиги, тенг ҳуқуқлилик, барча мулк шаклларининг тенглиги, одил судлов принципларини англаш мумкин.

Ҳуқуқий аниқлик принципи Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигида киритилмаган янги принцип ҳисобланади. Бу принципнинг амалга киритилиши қонун ижодкорлиги соҳасида қабул қилинаётган қонунларнинг аниқ бўлишига, барча учун тушунарли бўлишига ҳамда қонунларда тушунмовчиликлар, зиддиятлар бўлмаслигига асос бўлиб хизмат қилади.

Шу билан биргаликда ушбу принципнинг амалда қўлланилиши натижасида амалдаги қонунларнинг нотўғри талқин қилинишининг олди олинишига эришиш мумкин бўлади.

Таҳлил

Бизга маълумки, қонун ижодкорлиги жараёни бевосита қонун чиқарувчи ҳокимият орган томонидан қонунларни ишлаб чиқиш, амалдаги қонунларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш билан боғлиқ бўлган ҳамда ўз аҳамиятини йўқотган ёки аввалги қонуннинг ўрнига янги қонун қабул қилиниши билан олдинги қонунларни бекор қилиш билан боғлиқ фаолияти ҳисобланади ҳамда тартибга солиниши зарур бўлган муносабатларни аниқлаб олиш, қонун лойиҳасини тайёрлаш, уни муҳокама этиш, қабул қилиш ва эълон қилишни ўз ичига оладиган жараён ҳисобланади. Мазкур жараёнда ҳуқуқий аниқлик принципининг талабларига риоя этилиши муҳим аҳамият касб этади.

Биз сўз юритмоқчи бўлган ҳуқуқий аниқлик тамойилининг талаблари ҳам бевосита ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг белгиси сифатида намаён бўлади.

Бизнинг фикримизча ҳуқуқий аниқлик тамойилининг талаблари “ҳуқуқий давлатнинг элементи” сифатида майдонга чиқади ва давлатнинг ички ва ташқи функциялари фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишга ҳамда ҳуқуқий тартибга солиш механизмининг барқарор бўлишига йўналтирилади.

Инсон ҳуқуқлари бўйича европа судининг нуқтаи назарига кўра, агар норма етарли даражада аниқлик билан шакллантирилмаган ва натижада инсоннинг хатти-ҳаракатларини самарали тартибга солмаган бўлса қонун

сифатида тан олинмайди. Аниқлик қонун, шунингдек, қонун ҳужжатларининг амалда амалга оширилишини англатади ва *nullum crimen sine lege, nulla poena sine lege*¹ асосий принципи бўйича - қонунни аналогия бўйича қўллашни тақиқлашни англатади .

Ҳуқуқшунос олим Клип Андренинг фикрича *Nulla poena sine lege certa* - аниқ бўлмаган қонун бўйича жазо йўқ. Жиноий ҳуқуқбузарликлар аниқ белгиланиши керак. Ҳуқуқий аниқликнинг бу тамойили олдинги талаб билан биргаликда ҳар бир фуқарога ўз ҳаракатларининг қонуний ёки ноқонуний хусусиятини олдиндан кўра билиш имконини беради. Бу тамойил Европада умумий қабул қилинган .

Йигирманчи асрнинг бошларидаёқ рус ҳуқуқшуноси И. А. Покровский таъкидлади: “Биринчи ва энг муҳим талаблардан бири ривожланаётган инсон шахси томонидан қонунга тақдим этилган, ҳуқуқий аниқлик талаби ҳисобланади .

Ҳуқуқий аниқлик принципи Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигида киритилмаган янги принцип ҳисобланади. Бу принципнинг амалга киритилиши қонун ижодкорлиги соҳасида қабул қилинаётган қонунларнинг аниқ бўлишига, барча учун тушунарли бўлишига ҳамда қонунларда тушунмовчиликлар, зиддиятлар бўлмаслигига асос бўлиб хизмат қилади.

Шу билан биргаликда ушбу принципнинг амалда қўлланилиши натижасида амалдаги қонунларнинг нотўғри талқин қилинишининг олди олинишига эришиш мумкин бўлади.

Таниқли ҳуқуқ назарийчиси Густав Радбрух (нем.) ҳуқуқий аниқлик, адолат ва сиёсат тамойилини ҳуқуқнинг учта асосий устуни деб ҳисоблади. Бугунги кунда ҳуқуқий аниқлик принципи халқаро миқёсда қонун устуворлигининг асосий талаби сифатида эътироф этилган. Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотининг фикрича, қонун устуворлиги контсепцияси “биринчи навбатда ҳуқуқий аниқлик ва башорат қилиш манфаати йўлида қонун устуворлигига асосланган жамиятни таъминлаш зарурлигини таъкидлашга интилади” .

Қонун ижодкорлиги соҳасидаги ҳуқуқий аниқлик норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, хусусан, қонунлар ва улар асосида ривожланаётган ҳуқуқий муносабатларнинг барқарорлигида намоён бўлади. Натижада ҳуқуқий нормалар ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг барча соҳаларда аниқ ва бир хилда амал қилишига эришилади.

Ўзбекистон Республикасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисидаги Қонунининг 55-моддасида норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни

расмий шарҳлаш тартиби белгиланган бўлиб, унга кўра, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни расмий шарҳлаш норматив-ҳуқуқий ҳужжатда ноаниқликлар топилган, у амалиётда нотўғри ёки зиддиятли тарзда қўлланилган тақдирда амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунлари нормаларига расмий шарҳни Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суди беради.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорларига расмий шарҳни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг тегишли палаталари беради.

Қонуности ҳужжатлари нормаларига расмий шарҳни уларни қабул қилган органлар беради.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни расмий шарҳлаш жараёнида уларга нормаларни аниқлаштиришга қаратилган тузатишлар, ўзгартишлар, қўшимчалар киритилишига йўл қўйилмайди.

Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисидаги Қонунининг 85-моддасига асосан, Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунлари нормаларини расмий шарҳлаш уларда нормаларнинг амалиётда нотўғри ёки зиддиятли тарзда қўлланилишига олиб келган ноаниқликлар топилган тақдирда амалга оширилади.

Хулоса

Бизнинг фикримизча ҳуқуқий аниқлик принципи талабларига риоя этилиши норматив-ҳуқуқий ҳужжатда ноаниқликлар имкон қадар бартараф этилишига, уларнинг амалиётда нотўғри ёки зиддиятли тарзда қўлланилиши ҳолатларини камайтиришга хизмат қилган бўлар эди.

Умуман олганда бугунги кунда айрим ҳолларда қонун ҳужжатларининг нотўғри қўлланилиши натижасида фуқароларнинг қонуний ҳуқуқлари ва манфаатлари бузилмоқда. Бунинг натижасида фуқароларимиз томонидан ўз ҳуқуқларини тиклаш бўйича йиллар давомида давлат органлари ва ташкилотларига ҳамда суд инстанцияларига қайта-қайта мурожаат қилишларига сабаб бўлмоқда.

Ҳуқуқий аниқлик принципи талабларига риоя этилиши норматив-ҳуқуқий ҳужжатда ноаниқликлар имкон қадар бартараф этилишига, уларнинг амалиётда нотўғри ёки зиддиятли тарзда қўлланилиши ҳолатларини камайтиришга хизмат қилган бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент шаҳри, 1992 йил.

2. Ш.Сайдуллаев, Давлат ва ҳуқуқ назарияси, Тошкент-2018 йил.
3. Х.Одилқориев, Давлат ва ҳуқуқ назарияси, Адолат-2021 йил.
4. Л.Морозова, теория государства и права, Российское юридическое образование, 4-е издания.
5. Покровский И. А. Основные проблемы гражданского права. – 6-е изд., стер. – М., 2013.
6. Морозова Л. Правовая определенность как общеправовой универсальный принцип реализации права, Социально-экономические явления и процессы.
7. Бондарь Н. С. Правовая определенность – универсальный принцип конституционного нормоконтроля // Конституционное и муниципальное право. 2011. № 10.
8. Ўзбекистон Республикасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисидаги Қонуни. ЎРҚ-682сон, 20.04. 2021 йил.
9. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисидаги Конституциявий Қонуни, 27.04.2021 йилдаги ЎРҚ-687-сон.
10. Klip, André. Substantive Criminal Law of the European Union (англ.). — Maklu, 2011.
11. Maxeiner, James R. Some realism about legal certainty in globalization of the rule of law. Houston Journal of International law (Fall 2008).

HALIMA AHMEDOVA SHE'RLARIDA TUYG'ULAR ISYONI VA TABIAT HODISALARINING MUTANOSIBLIGI

Abdusalomova Durdonaxon Valilullo qizi

Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Andijon shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi

Abdusalomovadurdona0@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7084537>

Inson ruhiy dunyosini to'la tadqiq etish, o'rganib nihoyasiga yetkazish aslo mumkin emas. Olam sir-u sinoatga qanchalik boy bo'lsa, odamzod ruhiy dunyosi ham shunchalik murakkab va chegarasiz. Mana shu murakkablik va cheksizlik manzaralari ham rangindir. Shuning uchun haqiqiy shoir o'zini inson qalbi va ruhining muhofizi, musavviri deb his qiladi. Uni har qanday qo'pol, tashqi ta'sirlardan himoya qilish uchun kurashadi. Inson ko'ngli va ruhiy hayotini tadqiq etgan ijodkorlar, sirtdan qaralganda, tashqi voqelikdan yiroqlashganday ko'rinadi. Aslida esa, tashqi dunyoning ko'p muammolari inson farzandining qalbiga yo'l topish, ruhini anglash orqali hal etiladi. Inson ruhiyati yechilmas jumboq. Hech qanday fan hali uni to'liq tasvirlay olmagan. Badiiy ijodning o'ziga jalb etuvchi jihatlaridan biri, uning inson ichki olamidagi qorong'u va mavhum tilsimlarni ochish qobiliyatidir. Halima Ahmedova ana shu jihatni yanada boyitgan. Chunki, u inson ruhiyatida ro'y beruvchi jarayonlarga mos tabiat hodisalarini topa biladi, hamda ikki jarayonni uyg'un holatda o'z she'rlarida qo'llaydi. Bunday ifodalashning yutug'i shundaki, biz qalblarda jo'sh urayotgan tuyg'ular isyonini bilmasligimiz, og'rig'ini tatimagan, azobida yashamagan bo'lishimiz mumkin. Ammo tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan tabiat hodisalarini ko'rganmiz, ozmi-ko'pmi xabardormiz. Buni qalbdan his qilgan iste'dodli shoira inson ruhiyatini bevosita tabiat bilan bog'lab, qalb kechinmalarini mohirona ifoda etadi. "Da'vo" she'ridan olingan parcha:

Yuragim sevgidan gullagan paytlar

Gullashni daraxtga o'rgatgan edim.

Mening gullab yotgan ko'nglimga boqib,

Daraxt ham entikib gulladi so'lim.

Lirik qahramonning yuragi shu qadar sevgiga limmo-lim to'ldiki, daraxt bahorda zarur kuchni jamlab bo'lgach, kurtak yozib gullagani singari gullay boshladi. Chiroy ochdi. Shoira tabiatdagi "daraxtning gullashi" jarayonini mahorat bilan inson ruhiyatidagi "quvonch", "shodlik" holatlariga tashbehlay olgan. Inson qalbdan quvonar ekan, uning ko'tarinki kayfiyati tashqi qiyofasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Erta bahorda qiyg'oz gullagan

daraxt misoli atrofga go'zallik ulashadi. Yuqorida keltirilgan parchada ruhiyatning sirli tamoni tabiatning ajib bir hodisasi orqali o'quvchiga yetkazib berilgan. Halima Ahmedova har qanday mavzuda qalam tebratmasin uni yuksak pafos bilan qog'ozga muhrlaydi. O'quvchi ham uni xuddi shunday ko'tarinki holatda o'qiydi. E'tibor bering, ko'tarinki kayfiyatda demayapmiz, - ko'tarinki holatda. Zotan, shoira ning eng mahzun she'rlari ham tushkun kayfiyat tug'dirmaydi kishida. Balki dil dardiga malham kabi, majruh ruhga quvvat beradi, – tetiklashtiradi

Yurakda gul ochgan sevgi bog'ida

Yillarning shamoli nogoh berdi pand.

Gullashdan to'xtadi yuragim ammo

Daraxt hamon gullar menga nopisand.

Yurakdan sevgi shunchalar chuqur joy egalladi-ki, sevgi daraxtlari bog'ga aylandilar. Ammo vaqt... Vaqt hamisha beshavqat. Yillar o'tib qarovsiz qolgan bog'lar quriydi va kuzning to'zg'in bir shamoli ularni nobud etadi. Yuraklarda ham shunday... Yillar o'tgan sari e'tiborsiz qolgan muhabbat alangasi so'nadi. Barchamizga tanish manzara. Yuragimizda qachonlardir jarohat bo'lib qolgan o'sha damlar, o'sha iztirobli voqealar ham bugun shirin bir xotira bo'lib qalbga hayajon soladi. Xo'sh, mana shu satrlar kimni mahzun kayfiyatga chorlaydi. Shoira qalbidagi ichki olami bilan yaxshi tanish, shuning uchun ham kechinmalarini tadqiq qilishda qiynalmaydi. Tafakkur imkoniyati shu qadar kuchliki, u basharning dardu tashvishlari bilan o'zining kechinmalari o'rtasidagi ko'zga ko'rinmas bog'liqlikni mohirona ilg'aydi. Halima Ahmedovaning she'rlarida daf'atan sezilmaydigan, ko'ngil tubida ko'milib yotgan hissiyot, kechinmalar ifodalanadi. Ularda chuqur g'amginlik hissi, nola, iztiroblar aniq aks etadi. Ayni jihat shoira she'rlarining o'ziga xosligi sanaladi. Shoira ning she'rlarida borliqqa bezovtalik bilan qaraydigan, hayotni chin dildan sevadigan, unga talpinadigan, samimiy qalb tuyg'ulari jo'sh urib turadi. Bu qalbga qarab, har bir kishi kechinma, hissiyotlarining avval anglamagan ajib qirralarini kashf etadi. Chunki, shoira she'rlarida ko'pchilikning hayoliga kelmagan fikrlarni aytadi.

Ko'z yoshingni artib ol, deya

Xazonini tutadi daraxt.

Meni kuzga topshirib qo'yib,

Sen qaylarda qolib ketding, baxt?

Shoira she'rlarida hamisha inson ruhiyatidagi o'zgarishlar tabiat hodisalariga yonma-yon tasvirlanadi. To'g'rirog'i, qalb kechinmalarini o'quvchi yuragiga

ta'sirliroq, tushunarliroq qilish uchun adiba tabiat hodisalaridan foydalanadi. Yuqoridagi parchada inson qalbidagi g'ashlik, iztirobli damlar kuzning sokin, xazonrezgilik davridagi kunlari bilan yonma-yon tasvirlanadi. Ular orasidagi bunday o'xshashlik faqatgina Halima Ahmedova she'rlaridagina uchraydi.

Oyog'ing ostida bargday

To'kilib yotardi ko'nglim

Yuqoridagi satrlarda ifodalangan ko'ngilning daraxtdan to'kilgan bargga o'xshatilishi yangi va kutilmagan tashbehtir. U o'quvchini yetarlicha mushohada qilishga majbur eta oladi. Chunki, ushbu satrlarni shunchaki yengil o'qib bo'lmaydi. Nega aynan to'kilib yotgan barg? Axir barg xazonga aylanganda to'kiladi, qurib bitadiku? Lirik qahramonning ko'ngli shu qadar g'am-alamdan, sevgi azobidan qayg'uga botdiki, yor poyiga barg kabi o'zini "yoydi".

Hind braxmanlarida: "Insonning ko'zi, o'zidan boshqa hamma narsani ko'rishga qodir" degan aqida bor. Ijodkorning nigohi bundan mustasno deb bo'lmaydi, ammo, ijodkor, ayniqsa shoir ijtimoiy dolzarb muammolarni bir chetga yig'ishtirib qo'yib, "ko'z qorachig'ini ichga qaratadi". Binobarin, ruhiyat (psixologizm) - bu muallifning badiiy bo'yoqlar bilan qahramonning ichki olami manzarasini chizishga bo'lgan urinishi hisoblanadi. Halima Ahmedova she'rlarida ham huddi shunday holat ko'zga tashlanadi. Shoira bor ijodiy mahoratini ko'zga aylantiradi va insoniyat qalbiga yo'naltiradi. Ijodkorning "Osmon ko'ngli" nomli she'ridan olingan quyidagi parchaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Xazonga aylangan yurakni

Bokira maysaga suydirdim.

Ko'rsatib ruhimning jamolin

Dunyoning ko'zini kuydirdim

Har giyoh, har toshda yuz ochib

Afsunday to'lg'andi bu dilim

Yurak qachon xazonga aylanadi?! Yurakda umidlar so'nsa, o'zi izlagan, talpingan borliqqa yetolmasa, u tamoman yashashdan voz kechadi. Daraxt barglari kuz kelib, xazonga aylangani singari yurak ham to'kilishga, hayotni tark etishga shay bo'lib qoladi. Shoira ana shu ikki hodisani "Osmon ko'ngli" she'rida yakdil holatda tasvirlagan. Xazon singari jonsiz bo'lib qolgan yurakni hayotga qaytarish imkoni ham bor, ijodkor buning uchun erta bahorda tuproqdan bosh ko'targuvchi maysalardan foydalanadi. Zero, Abdulla Ulug'ov "Hur gulsan, hayot" nomli maqolasida huddi mana shu

she'ri uchun Halima Ahmedovaga quyidagicha ta'rif beradi: "Hissiyotlarni bu tarzda tiniq bayon etish, kechinmalarni ehtiros bilan ifodalash uchun kishida iste'dod bo'lishi zarur. Iste'dod- ijod qilish qobiliyati esa yaratganning bebaho ne'matidir. Halima Ahmedova ana shu ne'mat bilan siylangani bois borliqning boshqalar idrok etmagan ma'nolarini kashf etib, yulduzli osmon, qorong'i kecha, yorug' kunduz, tuproqdan bosh ko'targan maysa, ko'kka bo'y cho'zgan daraxtlarni tiniq ta'riflaydi, uning teran nigohi tevarak-atrofdagi barcha narsani boshqacha ko'radi.¹" Darhaqiqat, ushbu ta'rif tamoman to'g'ri berilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, shoira ijodida biz umuman o'zgacha haroratni, o'zgacha jozibani topishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Ahmedova "Erk darichasi" Adabiyot va san'at. 1996
2. H.Ahmedova "Tiyramoh" Adabiyot va san'at. 2005
3. H.Ahmedova "Nigoh qiblasini" Adabiyoti va san'at. 2011
4. H.Ahmedova "Afsun" Adabiyot va san'at. 2013
5. Abdulla Ulug'ov "Hur gulsan, hayot" Davron.uz
6. Jumaboyeva J. Lirik she'rda ruhiyat qudrati. O'zbek tili va adabiyoti. 1999. № 2. -B. 41-44.
7. Jumaboyeva J. Lirik qahramon ruhiy dunyosining teran manzaralari. O'zbek tili va adabiyoti. 1998.№6.-B. 16-20.
8. Saidakbar Mahsumxonov. She'riyatda barg obrazi. O'zbek tili va adabiyoti. 2004. №6.-B. 51-53.

¹ Abdulla Ulug'ov "Hur gulsan, hayot" Davron.uz

TILNING PAYDO BO`LISHI HAQIDAGI DASTLABKI NAZARIYALAR VA ULARNING TADQIQI

Ziyodillayeva Mahbuba Ermatovna

BuxDTI, ingliz tili kafedrası o`qituvchisi,

E-mail:mahbubaermatovna@gmail.com Tel: +998997740280

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7088861>

Annotatsiya: Bugungi kunda asosiy aloqa vositasi hisoblangan til bundan bir necha ming yillar oldin ancha sodda shaklda paydo bo`lgan edi. Ushbu maqolada til paydo bo`lishi borasidagi nazariyalar tahlili bayon qilinadi va ularning tarixi batafsil tanishtiriladi.

Tayanch tushunchalar: Davomiylik nazariyasi, Spontan nazariya, Noam Xomskiy, Charlz Darvin, Maykl Tomasello, homo habilis, homo erektus, Maks Myuller, kakku nazariyasi.

Hozirgi vaqtda insonlar orasida asosiy aloqa vositasi hisoblab kelinayotgan til bundan bir necha ming yillar oldin ibtidoiy odamlar nutqida bir nechta tovushlar talaffuzi timsolida namoyon bo`lgan edi. Inson evolutsiyasi jarayonida sayqallanib o`zining hozirgi mukammal va rangba-rang ko`rinishiga ega bo`ldi. Tilning paydo bo`lishi bir nechta taxminiy nazariyalarga asoslanadi: ¹

- **“Davomiylik nazariyasi”** odamning primat ajdodlari orasidagi tilning vujudga kelishidan oldingi muloqotning rivojlanishi kabi murakkab sotsiolingvistik jarayon natijasida til paydo bo`lgan degan gipotezani ilgari suradi;
- **“Spontan nazariya”** esa davomiylik nazariyasiga qarama-qarshi bo`lgan g`oyani ya`ni odam evolutsiyasi jarayonidagi tasodifiy hodisa natijasida til paydo bo`lgan degan nazariyani qo`llab-quvvatlaydi;
- Ayrim nazariyalar tilga tabiiy genetik jarayonlar natijasi sifatida qaraydi;
- Bundan tashqari tilga ijtimoiy muloqot asosida o`rganiladigan ma`naviy sistema sifatida qarovchi bir nechta qarashlar ham mavjud.

2018-yilda ko`pchilik lingvistik olimlar “davomiylik nazariyasi” tarafdorlari edi, lekin ular til rivojlanishini qanday gipotezalashtirishda farqli xususiyatlarni ko`rsatadilar. Tilni asosan tug`ma xarakterga ega deb hisoblovchilar orasida ba`zilar inson bo`lmagan primatlarning til xususiyatlarini to`la ochib bera olmasliklarini aytadilar hamda til evolutsion taraqqiyot natijasi ekanligini

¹ Ulbæk, Ib (1998). James R Hurford; Michael Studdert-Kennedy; Chris Knight (eds.). The origin of language and cognition. Approaches to the evolution of language : social and cognitive base. Cambridge, UK; New York: Cambridge University Press. pp. 30–43.

ta'kidlab o'tadilar.² Ushbu intellektual faoliyat xodimlari orasida ko'pchilik, asosan, Ib Ulbaek³ til primatlarning bir-biri bilan muloqot qilishi natijasida emas, balki, bundanda murakkabroq jarayon bo'lgan primatlar kognatsiyasi hosilasidir degan fikrni qo'llab quvvatlaydilar.

Maykl Tomasello⁴ kabi tilga ijtimoiy muloqot natijasi sifatida qarovchilar primatlar orasidagi aloqaning kognitiv aspektlari natijasida rivojlanadi deb hisoblashadi hamda bu muloqot tovushlar vositasida emas, imo-ishoralar asosida yaratilgan. Tovushlar vositasidagi muloqot haqida gap ketganda, ko'plab nazariyotchilar insonning tildan qo'shiq kuylash uchun foydalanishini nazarda tutadilar.

“Spontan nazariya” tarafdori Noam Xomskiyning ta'kidlashicha, 100 000 yil oldin odam miyasida tasodifiy mutatsiya sodir bo'lib, til qobiliyatini "mukammal" yoki "yarim mukammal" holatga o'tkazgan⁵. Bir qator tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, avstralopiteklar ham vokal muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan. Ayrim olimlar primitiv til xususiyatlari rivojlanishi “Homo habilis” odam turi (2.5 million yil oldin) ning paydo bo'lishi bilan bog'liq deb taxmin qilishadi. Ramziy aloqa (belgilar orqali muloqot qilish) paydo bo'lishi esa “Homo erectus” (1.8 million yil oldin) ning paydo bo'lishi bilan bog'lanadi. Odamlar orasidagi aloqaning til vositasida olib borilishi esa bundan 200,000 yil oldin “Homo sapiens” ning vujudga kelishi bilan baholanadi.⁶

Hozirgi zamonaviy tillarning tarqalishi va xilma-xillashuvi qaysi vaqtga borib taqalishini aniqlash uchun statistik metodlarni qo'llagan holda Kaliforniya universiteti tilshunosi Joanna Nikols 1998-yilda tovushlar vositagi (vocal) tillar bundan kamida 100 000 yil oldin xilma-xillashuvni boshlagan degan taxmini ilgari suradi.⁷

² Pinker, Steven (1994). The language instinct. New York: W. Morrow and Co. ISBN 978-0-688-12141-9. OCLC 28723210

³ Ulbæk, Ib (1998). James R Hurford; Michael Studdert-Kennedy; Chris Knight (eds.). The origin of language and cognition. Approaches to the evolution of language : social and cognitive base. Cambridge, UK; New York: Cambridge University Press. pp. 30–43.

⁴ Tomasello, Michael (1996). B M Velichkovskiï; Duane M Rumbaugh; Universität Bielefeld Zentrum für Interdisziplinäre Forschung (eds.). The cultural roots of language. Communicating meaning : the evolution and development of language. Mahwah, N.J.: L. Erlbaum.

⁵ Chomsky, N, 1996. Powers and Prospects. Reflections on human nature and the social order. London: Pluto Press, p 30.

⁶ Arcadi, AC. (August 2000). "Vocal responsiveness in male wild chimpanzees: implications for the evolution of language". Journal of Human Evolution. (2): 205–23.

⁷ Johanna Nichols, 1998. The origin and dispersal of languages: Linguistic evidence. In Nina Jablonski and Leslie C. Aiello, eds., The Origin and Diversification of Language, pp. 127–70. (Memoirs of the California Academy of Sciences, 24.) San Francisco: California Academy of Sciences.

Q.D. Atkinson⁸ tomonidan olib borilgan keyingi tadqiqot shuni ko'rsatadiki, odamlarning afrikalik ajdodlari boshqa hududlarga ko'chib o'tganligi sababli ketma-ket populyatsiya to'siqlari paydo bo'lib, genetik va fenotipik xilma-xillikning pasayishiga olib keldi. Atkinsonning ta'kidlashicha, bu to'siqlar madaniyat va tilga ham ta'sir qilgan va ma'lum bir til Afrikadan qanchalik uzoqda bo'lsa, undagi fonemalar shunchalik kam bo'ladi. Dalil sifatida, Atkinsonning ta'kidlashicha, bugungi Afrika tillari nisbatan ko'p sonli fonemalarga ega, Okeaniya tillarida esa (odamlar yashaydigan oxirgi mintaq) nisbatan kam.

Charlz Darvin⁹ tilning kelib chiqishini imo-ishoralar, turli xil tabiiy tovushlar, boshqa hayvonlarning ovozi va insonning instinktiv faryodlariga taqlid qilish va o'zgartirishga bog'liq ekanligini aytib o'tdi. 1861 yilda tarixiy tilshunos Maks Myuller og'zaki tilning kelib chiqishiga oid spekulativ nazariyalar ro'yxatini e'lon qildi:¹⁰

- **“Bov-vov”** - nemis faylasufi Iogann Gotfrid Xerderga tegishli bo'lgan faraz. Unga ko'ra dastlabki so'zlar hayvonlar va qushlarning qichqirig'iga taqlid qilish natijasida paydo bo'lgan. Ayrim adabiyotlarda “kakku” nazariyasi deb ham aytiladi.

- **“Pooh-pooh”** – dastlabki so'zlarni og'riq, zavq, hayrat va hokazolar bilan qo'zg'atilgan hissiy so'zlar va undovlar sifatida paydo bo'lgan deb hisoblovchi nazariya.

- **“Ding-dong”** - Maks Myuller o'zining “ding-dong” deb nomlangan nazariyasini taklif qildi. Unga ko'ra hamma narsa tabiiy rezonans tebranishiga ega, bu esa inson tomonidan o'zining dastlabki so'zlarida qandaydir tarzda aks ettirilgan.

- **“Yo-he-ho”** – nazariyasi til paydo bo'lishini odamlarning jamoaviy ritmik mehnatdan so'ng hordiq chiqarish maqsadida, mushaklarning harakatini bo'shashtirishga urinish natijasida paydo bo'lganligini aytib o'tadi, natijada chuqur nafas olish holati “ho” taqlid tovushi bilan ifodalangan.

- **“Ta-ta”** nazariyasiga ko'ra, odamlar qo'lda imo-ishoralarni taqlid qilib, ularni eshitiladigan qilib ko'rsatadigan til harakatlari orqali dastlabki so'zlarni yasagan.

Olimlar tomonidan taklif etilgan ushbu nazariyalar tilning qanday paydo

⁸ Atkinson, Quentin (2011). "Phonemic Diversity Supports a Serial Founder Effect Model of Language Expansion from Africa". *Science Magazine*. (6027): 346–349.

⁹ Darwin, C. (1871). "The Descent of Man, and Selection in Relation to Sex, 2 vols. London: Murray, p. 56.

¹⁰ Müller, F. M. 1996 [1861]. The theoretical stage, and the origin of language. Lecture 9 from Lectures on the Science of Language. Reprinted in R. Harris (ed.), *The Origin of Language*. Bristol: Thoemmes Press, pp. 7–41.

boʻlganligi toʻgʻrisidagi taxminiy farazlar boʻlib, ushbu sohaga aloqador arxeologik va antropologik dalillarga asoslangan.

REFERENCES

1. Ziyodillaeva Mahbuba Ermatovna. (2022). BILLINGUALISM IN UZBEK AND CHICANO LITERATURE. MARTIN ESPADA AND SADRIDDIN AYNIY AS A FAMOUS BILINGUAL REPRESENTATIVES. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(3), 363–368.
2. Зиёдиллаева Махбуба Эрматовна. (2022). БИЛИНГВИЗМ В УЗБЕКСКОЙ И ЧИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ. МАРТИН ЭСПАДА И САДРИДДИН АЙНИЙ КАК ИЗВЕСТНЫЕ ДВУЯЗЫЧНЫЕ ПРЕДСТАВИТЕЛИ. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(3), 177–182.
3. Ziyodillaeva Mahbuba Ermatovna. (2022). ITERLINGUISTIC FEATURES OF AMERICAN ENGLISH AND MEXICAN SPANISH. SOCIOLINGUISTIC RESEARCH ON CHICANO ENGLISH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 328–332.
4. Ziyodillayeva Mahbuba. (2022). CHICANO AND JADID MOVEMENTS AND FAMOUS REPRESENTATIVES IN THIS FIELD. Involta Scientific Journal, 1(6), 344–353.
5. Ziyodillayeva Mahbuba. (2022). CHIKANO VA JADIDCHILIK HARAKATLARI HAMDA USHBU YOʻNALISHDAGI MASHHUR NAMOYONDALAR. Involta Scientific Journal, 1(6), 405–415.
6. Khayrullayeva, K. R. (2020). Description of Zahiriddin Babur's achievements in various fields in the works of Uzbek and world authors. ISJ Theoretical & Applied Science, 09 (89), 8-11.
7. Ravshanovna, Khayrullayeva Kamola, and Hakimova Muhabbat Alimovna. "THE EXEMPLARY LIFE OF BABUR MIRZA IN THE INTERPRETATION OF STEPHEN MEREDITH."
8. Kamolov Ikhtiyor Nigmatullayevich, Khayrullayeva Kamola Ravshanovna and Quvvatova Dilrabo Khabibovna THE IMAGE OF BABUR IN THE INTERPRETATION OF HAROLD LAMB. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27,
9. Khayrullayeva Kamola Ravshanovna. INTERPRETATION OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S IMAGE IN UZBEK AND WORLD LITERATURE. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), Volume: 5 | Issue: 5 | May 2020. SJIF Impact Factor: 7.001| ISI I.F.Value:1.241| Journal

DOI: 10.36713/epra2016. ISSN: 2455-7838(Online).

10. Ravshanovna, Khayrullayeva Kamola. "The image of babur mirza in the interpretation of stephen meredith." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.11 (2021): 239-244.
11. Khayrullayeva Kamola Ravshanovna. (2022). THE IMAGE OF BABUR AS KING AND LEGATE IN WESTERN ENGLISH AND UZBEK PROSE. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 8(2), 134–138.
12. Habibova, M. N. (2021). JORJINA HOUELLNING "QUEEN OF THE DESERT" BIOGRAFIK ASARIDA GERTRUDA BELL TIMSOLI TASVIRI. *ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES*, 2(2), 770-778.
13. Habibova, M. N. (2021). The theme feminism in the epistolary novels in modern times. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11 (103), 1101-1105. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-11-103-124>
14. Manzila Nuriddinovna Habibova. (2022). THE HISTORY OF THE RUSSIAN EPISTOLARY NOVEL IN EIGHTEENTH CENTURY. *EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(3), 135–139.
15. 1.Хакимова Мухаббат, & Нематова Зебо. (2021). Лексические инновации периода ранненовоанглийского языка (XVI век). *Central Asian journal of theoretical & applied sciences*, 2(5), 202-207.
16. H., Davlatova M. "Aspectual Variability of Information Culture in the History of the English Language." *International Journal on Integrated Education*, vol. 3, no. 3, 2020, pp. 24-28, doi:10.31149/ijie.v3i3.81.
17. Davlatova, M. H. "Variability of Aspectual Meanings in English." *European Journal of Research and Reflection in Educational Science* 7.12.2019 (2019): 778-780.
18. Davlatova, M. H. "An Integrative history of Aspectual meanings." *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, Volume6 4 (2020): 17-22.
19. Давлатова, Мухайё Хасановна. "The role of songs in learning English." *Молодой ученый* 10 (2015): 1145-1147.
20. Mukhayyo Hasanovna Davlatova, "RELATION OF LEXICAL-SEMANTIC STRUCTURE OF VERBS IN THE LINGUISTIC ESSENCE", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 6, no. SP, p. 5, Jan. 2021.
21. Davlatova, Mukhayyo H. "Lexico-semantic Structure and Its Analysis on the Example of Verbs." *JournalNX*, vol. 6, no. 06, 2020, pp. 189-192.

22. Давлатова, Мухайё Хасановна. "Этапы работы с видеотекстами на занятиях Английского языка." Интернаука 9-2 (2017): 16-19.
23. Davlatova Mukhayyo Hasanovna. (2021). DIFFERENT ASPECTS OF RESULTATIVE STRUCTURES ACCORDING TO THEIR LINGUISTIC ESSENCE. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(05), 475-479. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/D4T8J>.
24. Hasanovna, Davlatova Mukhayyo. "SEMANTIC IMPLEMENTATION OF RESULTATIVE STRUCTURES." *METHODS* 7.6 (2021).
25. Давлатова, Мухайё. "ASPECTUAL AND LEXICO-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERBS." *Сўз санъати халқаро журналі* 1.3 (2020).
26. Нематова, З. Т., & Хакимова, М. А. (2021). Идеи об идеальном человеке, языке, процветании в эволюции общественно-политических взглядов узбекских джадидов начала XX века. *Central Asian journal of theoretical & applied sciences*, 2(5), 219-224.
27. Mukhabbat, K. Nematova Zebo Lexical innovations of the early English language period (XVI century). *International Engineering for Research and Development.-2020.-№, 5(9)*.
28. Нематова, З. Т., & Хакимова, М. А. (2020). Songs in teaching English to young second language learners. *Молодой ученый*, (50), 497-499.
29. Hakimova, M. A., Nematova, Z. T., & Ziyayeva, D. A. (2020). General basis of lexico-semantic composition of words. *Theoretical & Applied Science*, (6), 145-148.
30. Nematova Zebo Tursunboevna. (2022). Various types of assessment in language teaching and learning. *Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture*, 2(3), 140-145.

НАЗАР ЭШОНҚУЛ АСАРЛАРИДА ДРАМАТИК ВА ТРАГИК ОБРАЗЛАР ТИЗИМИ

Сохиба Саидмурадова

Термиз давлат Педагогика институтининг

Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси

ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7089848>

Аннотация

Улкан ижодий кучлар, яъни буюк санъаткорлар биринчи навбатда ўз Ватани, ўз миллати учун бебаҳо вазифаларни бажарадилар, ўз миллатининг миллий - маънавий жиҳатдан ўзини – ўзи англаши учун фидойилик қиладилар. Бунда ёзувчига ҳаётий кишилар образи ва шу образлар ҳатти – ҳаракати ёрдам беради. Мақолада, Назар Эшонқул асарларида шу типдаги қуйдош образ намуналарини эслаш мумкинлиги, образлар ўз характер – тийнатига кўра, неча турларга бўлинади: ижобий образ, салбий образ, сатирик образ, юмористик образ, комик образ, трагик образ, драматик образ, тарихий шахслар образи, афсонавий образлар, нореал образларларга бўлиниши кенг ёритилади.

Калит сўзлар; психологик тасвир, етакчи образ, трагик образ, драматик образ, тарихий шахслар образи, ҳаёт воқелиги, долзарб муаммо

Ҳар бир бадиий асар марказида турувчи кишилар сиймоси, яъни образлар воситасида ҳаёт воқелиги, ижтимоий масалалар ўз тасвир – талқинини топади.

Адабиёт ва санъат воқеликни образлар воситасида акс эттирар экан, ҳар бир асарда тасвирланган нарса, предмет ёки иштирок этувчи шахслар кенг маънода образ дейилади. Аммо образ термини санъат ва адабиётда бироз чегараланган маънода – фақат инсонга нисбатан қўлланилади. Чунки, объектив ҳаётдаги ҳамма нарса инсон измида экан, демек, адабиёт ва санъатда ҳам инсон образи етакчилик қилади.

Ижтимоий бурч ва эътиқод даврининг долзарб муаммолари қўлга қалам олишга ундайди. Чунки у даврнинг ижодкори сифатида замона ижтимоий талабларини фарқламаслиги, социал ҳаёт оқимини акс эттирмаслиги мумкин эмас. Бинобарин, улкан ижодий кучлар, яъни буюк санъаткорлар биринчи навбатда ўз Ватани, ўз миллати учун бебаҳо вазифаларни бажарадилар.

Муҳими, ўз миллатининг миллий - маънавий жиҳатдан ўзини – ўзи англаши учун фидойилик қиладилар. Бунда ёзувчига ҳаётий кишилар образи ва шу образлар ҳатти – ҳаракати ёрдам беради. Образлар ўз

характер – тийнатига кўра, неча турларга бўлинади: ижобий образ, салбий образ, сатирик образ, юмористик образ, комик образ, трагик образ, драматик образ, тарихий шахслар образи, афсонавий образлар, нореал образлар.

Масалан, Назар Эшонқул асарларидан шу типдаги қуйидаш образ намуналарини эслаш мумкин: Муаззам (“Момоқўшиқ” қиссаси) – ижобий образ; Замон отбоқар (“Шамолни тутиб бўлмайдими” ҳикояси) – салбий образ; Рассом чол (“Маймун етаклаган одам” ҳикояси) трагик образ; Шаҳар меъмори (“Тобут” ҳикояси) – трагик образ; Рассом (“Санъат” ҳикояси) – драматик образ; Н. (“Гўрўғли ёки ҳаёт суви” романи) – драматик ва трагик образ; Ғаним (“Истило” ҳикояси)– сатирик образ; Сулаймон Пайғамбар (“Тун панжаралари” қиссаси) – нореал образ; Чўққи соқол (“Қора китоб” қиссаси) – сатирик образ ва хоказо.

Образларни соф салбий ёки ёки ижобий сатирик ёки драматик, трагик ёки афсонавий образлар сифатида тушунмаслик керак. Инсон образи моҳиятан бир – бирига уйғун синкретик шаклларда эътиборни тортади. Бу ҳаёт қонуни бўлиб, бир шахс албатта ижобий ҳислатлар эгаси, бошқа бир одам нуқул мунофиқ характерли сатирик моҳиятига эга бўлмаслиги мумкин. Масалан, Гётенинг “Фауст” трагедиясидаги бош образ Фауст қанчалик билимдон, эзгуқалб инсон бўлмасин, унда беихтиёр равишда камчиликлар, етишмовчиликлар ҳам мавжуд. Ҳатто, ёвуз шайтон тимсоли Мефистофел қиёфасида яхшилик, ачиниш каби ижобий ҳислатлар ҳам кўзга ташланади. Бундай талқин асарларга ҳаётийлик пафосини бағишлайди.

Назар Эшонқул ўз асарларида драматик ва трагик образлар тизимидаги адабий қаҳрамонлар, хатто, кичик персонажлар қиёфасидаги ижобий, салбий жиҳатларни қоришиқ ҳолда тасвирлайди. Чунончи, инсон соф олийжаноб ёки соф мунофиқ бўлмаслиги ижтимоий ҳаёт мувозанатига тўғри келмайди. Масалан, рассом чол (“Маймун етаклаган одам”), меъмор (“Тобут”) каби трагик образлар бир замонлар шўро сиёсатининг ноинсоний ғояларига сидқидилдан хизмат қилган кишилар бўлиб, сўнгра бири гадосифат, бири жинни бўлиб қолган шахслар.

Таъкидлаш жоизки, Назар Эшонқул асарларида соф ижобий образлардан кўра, кўпроқ драматик ва трагик образлар, нореал ёки афсонавий тимсоллар кўлами кўпроқ эътиборни тортади. Назар Эшонқул услубининг ўзига хослигига биноан драматик ва трагик образларга кўп эътибор берилишининг асосий сабабларидан бири – шўро тузуми зулмини тортган бандаларининг шўр тақдирини қаламга олиши билан боғлиқдир.

Нореал, афсонавий ёки тимсолий – мажозий образларга эътиборининг боиси эса, аввало, ёзувчи ижод карьерасининг романтик – поэтик оҳангдорликка мойиллигининг, ҳаётни, ҳаёт – ҳақиқатларини хаёлий – мажозий, хаёлий-лирик кўламида акс эттиришга эътибор беришининг сабабларидан қидириш лозим бўлади. Ёзувчи асарларининг жозибадорлиги эса, унинг психологик тасвирга бевосита урғу бериши ва шу услубга таяниши билан алоқадор.

“Бекатлараро такси ён томондан келиб урилган “КаМАЗ”нинг зарбига дош беролмай аввал бир ёнга оғди, кейин гурсиллаб қулади: шофёр ва йўловчиларнинг кўзлари чақчайиб кетди – кўрқув ва даҳшат аралаш баравар бақриб юборишди – уларга нарироқдаги бекатда турганлар ҳам жўр бўлди. “КаМАЗ” нинг ҳайдовчиси сакраб тушиб, таксига қараб югурди: у спортчилар камзулини кийиб олган, барваста, жухудбашара, шоп мўйловли одам эди.”

“Битик” ҳикояси шундай кўнгилсиз ва ноҳуш воқелик- автоҳалокат ҳодисаси рўй бериши билан бошланади. “КаМАЗ” ҳайдовчисининг – шу автоҳалокат сабабчиси бўлган кишининг психологик портрети тасвиридаги барвасталик, жухудбашара, шоп мўйловлик, спортчилар камзулини кийганлиги унинг нописандлигини, машина бошқарувида бепарво ва ўзига ишонишини писанда қилувчи руҳиятини тушуниш имконини беради. Шу боис ҳам ўз йўлида безавол ҳаракатланаётган таксини оғир машинасининг уриб юбориши, унинг ичидаги одамларнинг зарарланиши, қаттиқ кўрқиб қолишлари табиий ҳол.

КаМАЗ”нинг шофёри юқорига яна учта йўловчини тортиб чиқаради – уларнинг ҳеч жойига жароҳат етмаган эди, ёхуд ҳали ўзларига тўла келмаган, шу сабабли ўзларини соппа – соғдай тутишарди. Улар нарироққа бориб, томошабинлар сафига қўшилишди. Такси шафёрининг чап юзи пачоқ бўлган эди. У гарчи гапираётган бўлса ҳам ўзини аллақачон ўлик ҳисоблаб, чўзилиб ётиб олади. “Яна бир йўловчи бор овози билан “қовурғам... қовурғамнинг абжағи чиқди” деб бақирарди. Уни машина ичидан тортиб ўтлоққа ётқизиб қўйишди. Шу пайт узун бўйли, оққува милиционер етиб келди. У одамларни туртиб -суртиб олдинга ўтди.”

Катта машина ҳайдовчиси, гарчанд, ёқимсизроқ рафторли киши бўлса-да, виждон амри билан такси ичидан жабрланган кишиларни олиб чиқишга масъулият билан ҳаракат қилади. Ёзувчи такси шафёрининг, гапириб турган ҳолида, ўзини ерга ташлаб ётиб олишида унинг ўзини жабрдийда қилиб кўрсатиш пайида бўлаётганлигини психологик жиҳатдан анча ёрқин талқин этган. Унчалик жароҳатланмаган учта

йўловчининг ҳам томошабинлар сафига бориб қўшилишларида анатомик руҳини асослашни кўзлаган.

Ёзувчи бундай машина ҳалокати жараёнидан муҳим ижтимоий – ахлоқий хулоса чиқаришни кўзлаган. Шу қисқа ҳажмдаёқ бу жараёндаги кишиларнинг ҳарактер- тийнатидаги ранг – баранг қирраларини психологик мушоҳада, психологик ҳарактеристика, психологик портрет услублари орқали, анча жонли тасвирлай олган. Масалан, такси ҳайдовчиси ўзи ноҳос катта машинага таксини келтириб урганлигини хаспўшлаш мақсадида ўзини оғир жароҳатлангандай қилиб кўрсатмоқчи. “КаМАЗ” ҳайдовчиси бу автоҳалокатда ўзини ... беғуноҳ деб билишларини кўзлаб, жонкуяр ҳаракатчанликка йўймоқчи, милиционерга бу ишда ўзини тамоман айбсиз деб танитмоқчи; деярли лат емаган уч йўловчи эса, ёнларида китоб ўқиб келаётган кишининг ногоҳ ўриндиқ ва шифт орасида боши қисилиб ўлиб қолганига, уни шартта ташқарига олиб чиқишга парво ҳам қилмай, тағин ноҳуш манзарани томоша қилиб турган эрмакталаб кимсалар даврасига бориб қўшилишлари ҳодисаси орқали одамлараро беғоналик, тошюраклик психологияси кучайиб бораётганлигини таъкидламоқчи.

“КаМАЗ” ҳайдовчиси энди милиционерни кўриб қолганди: -Йўл меники эди, қайдан пайдо бўлди, билмай қолдим, - деди овозига мусибат туси бериб. Милиционер ҳеч нарса демагач, шу гапни икки – уч марта қайтарди.

Милиционер ўлган йўловчининг панжалари орасидан китобни зўрға чиқариб олди ва қонли бармоқларини изи қолган очиқ вараққа шунчаки нигоҳ югуртирди ва катта – катта ҳарфлар билан ёзилган “У китоб ўқиб ўлажак...” деган сўзларга кўзи тушди”

Психологик маҳорат назарияси бўйича таниқли адабиётшунос Л.Я.Гинзбургнинг кўрсатишича, “Бадий психологизм қаҳрамонларининг ўзини тутишидаги ҳаёлга ҳам келмаган, ногоҳоний, тасодифий қарама – қаршиликлардан бошланади”

Олима психологик тасвир бўйича ёзувчи танлаши мумкин бўлган адабий – психологик услубий жиҳатни анча тўғри ва ҳар бир бадий асар ҳарактеридан келиб чиқиб баҳолашни мантиқли аниқ талқин этган. Бунга Назар Эшонқулнинг мўъжаз “Битик” ҳикояси мисолида ҳам гувоҳ бўлиш мумкин. “КаМАЗ” ва такси ҳайдовчилари, уч йўловчи руҳиятидаги маъно – мазмун уларнинг ташқи ҳолатлари, нутқлари ва ўзини тутишлари аспектида тасвирланганлигига гувоҳмиз. Буларнинг қилиқ-ҳосиятлари ҳеч кутилмаган, аввалдан уларнинг кимлиги, ҳарактер – хусусиятларини

билмай туриб, китобхон тасодифан уларнинг худбин, иккиюзламачи, оломонлик – томошабинлик сингари психологик ҳолатларни аниқ кузата олади.

Мана энди, мазкур ҳикоя ғоявий – бадий тизимида етакчи ўринда турадиган, автоҳалокатда ўлган кишининг психологик тақдири билан боғлиқ масалага эътибор берайлик. Бу қўлида китоб билан таксидаги йўловчилардан бири бўлган кишининг на номини биламиз, на касб – кори, на характер – хусусияти бизги таниш эмас. Аммо, унинг силкиниб юрадиган таксидаям китоб мутолаасига берилганлиги мантиқан, психологик жиҳатдан бизга маълум. Таассуфки, ўзини сунъий жабрланган қилиб кўрсатаётган такси ҳайдовчиси эмас, уч томошабин – оломонсифат йўловчи эмас, келиб – келиб, китоб шайдосининг ўлими ажаблантирмасдан қўймайди. Балки, бу билан ёзувчи “Ёмонга ўлим йўқ” ёки халқ донишмандлигида маълум нақлларга ишоравий психологик талқинини назарда тутгандир. Китобини қўлида ушлаб ҳалок бўлган кишининг эзгуқалб сиймо эканлигини шу китоб психологик деталининг ўзи кўрсатиб турибди. Ёзувчи ҳалиги халқ нақллари моҳиятидан келиб чиққан холда, номи – шарифи, касб – кори, характери маълум бўлмаса – да, номаълум тарзда ўлиб кетган банданинг китобни чангаллаб тутиб, фожиали ҳалок бўлганлиги орқали бу бечора руҳи абадий шон – шарафга лойиқлигини таъкидламоқчи. Устига – устак, бу банда чангалидаги китобнинг очик қолган саҳифасидаги “У китоб ўқиб ўлажак” ёзуви янада муҳим ижтимоий – маънавий ҳақиқатни тасдиқлаяпти. Бу фалсафий ақида ҳар бир китобхон қалб – шуурида китобни севган, китоб мутолаасини севган, ҳаёт ва инсон ҳақиқатини китоблардан излаган кишининг маънан – руҳан ўлмаслиги ғоясини кечиниши табиийдир. “У китоб ўқиб ўлажак” ҳикматли ақидаси ошкоралик ва юксак демократик ислохотлар устувор кучга айланган бугунги куннинг муҳим ижтимоий дастуридан бирига маънавий мададкорлик қилувчи восита сифатида ҳам аҳамиятлидир. “У китоб ўқиб ўлажак” каломини асли психологик жиҳатдан “Китоб ўқиган асло ўлмайди” деган маънавий хулоса моҳиятига, ибратига эга эканлиги унинг умумий ғоявий мазмунидан англашиладиган ҳикматдир

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1,Зуннунов А. Ҳотамов Н. Адабиёт назариясидан қўлланма “Ўқитувчи”, Тошкент -1978, 41-42- бетлар
- 2,Эшонқул Н. Битик // Эшонқул Н. Момоқўшиқ. Т., 2019, 256- бет.
- 3,Эшонқул Н. Битик // Эшонқул Н. Момоқўшиқ. Т., 2019, 256- бет.

4,Эшонкул Н. Битик // Эшонкул Н. Момоқўшиқ. Т., 2019, 257- бет.

5,Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. Ленинград, “Советский писатель”, 1971, стр 300

ILLOKUTIV AKT VA ULARNING TURLARI

Jumaqulova Shaxnoza Qudrat qizi
Termiz davlat universiteti, Ingliz tili va
adabiyoti kafedrasida stajyor-tadqiqotchisi
E-mail: shaxnoz2023@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7089854>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi nutqiy aktlarning illokutiv akti va ularning turlari haqida fikr yuritilgan. Turli badiiy asarlardan nutqiy aktlar tanlab olinib, ularning illokutiv akti tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Illokutiv akt, representativ (assertiv), direktiv, komissiv, ekspressiv, deklarativ.

Maʼlum bir fikrni soʻzlovchi ifodalar ekan, ushbu nutq mazmuni aniq va tushunarli boʻlishi tinglovchi uchun muhim hisoblanadi. Tinglovchi tomonidan ushbu mazmun anglanib, uning mazkur fikrga nisbatan harakati oʻzaro aloqador sanaladi. Shu sababli, nutq faoliyati davomida uning mazmuni oʻrganilishi pragmatikada tadqiq etiluvchi dolzarb masalalardan biri sanaladi.

S.X.Azimovning soʻzlariga koʻra, nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga koʻra soʻzlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi [2, 182]. J.Ostin nutq aktlarini lokutiv, illokutiv, perllokutiv aktlarga ajratganligini Arso Setyaji [1, 18] qayd etgan. Ushbu aktlardan illokutiv akt nutq mazmunini aks etishida muhim rol oʻynaydi. “Illokutiv akt” tushunchasini pragmatikada inson tomonidan nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat sifatida Sh.Safarov taʼriflab, O.G.Pochepsovning quyidagi fikrlarini qayd etadi: 1) illokutiv harakatning ijrochisi (agenti) soʻzlovchi yoki yozuvchidir; 2) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyatidan farq qiladi; 3) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyati jarayonida yuzaga keladi; 4) illokutiv akt nutqiy faoliyat vositasida bajariladi [6, 83].

J.Syorl illokutiv aktlarning beshta asosiy turga yaʼni representativlar (yoki assertivlar), direktivlar, komissivlar, ekspressivlar va deklarativlarga ajratadi [7, 1]. J.Syorl tasnifi nutqiy harakatlarning asosiy xususiyatlarini umumlashtirib, tizimlashtirgan holda oʻrganish va tahlil qilish imkonini beradi.

J.Syorl representativ yoki assertiv sinf aʼzolarining maqsadini soʻzlovchini biror narsaning mavjudligiga, ifodalangan taklifning haqiqatiga majbur qilib, ushbu sinfning barcha aʼzolari toʻgʻri va yolgʻonni oʻz ichiga olgan baholash oʻlchovi boʻyicha baholanishini tushuntiradi [7, 10].

Direktivlar guruhini P.V.H.Smit soʻzlovchining tinglovchini biror narsa qilishga undashga urinishlari [5, 8], Sh.Safarov buyruq, savol, iltimos, ogohlantirish kabi tinglovchini faoliyatga undovchi nutqiy aktlar [6, 91].

Sh.Safarov illokutiv akt bo'yicha J.Syorl tasnifida keltirilgan komissivlar guruhini J.Ostin ajratgan guruhga moslashtirib [6, 91], bu guruhni va'da berish va boshqa turdagi majburiyatlar bilan ifodalaydi [6, 90].

J.Syorlning fikriga ko'ra, ekspressivlar sinfining illokatsion nuqtasi taklif mazmunida ko'rsatilgan holatlar to'g'risidagi samimiylik sharoitida ko'rsatilgan psixologik holatni ifodalash bo'lib, ekspressiv fe'llarning paradigmalari "minnatdorchilik", "tabriklash", "uzr so'rash", "ta'ziya bildirish", "afsuslanish" va "xush kelibsiz" kabilardir [7, 12].

Deklarativlar guruhini J.Syorl "nutq harakatlarining o'ziga xos toifasi" sifatida ta'riflab, ular, odatda, ba'zi bir institutsional doirada buni amalga oshirishga vakolatli shaxs tomonidan bajarilishini G.N.Lich qayd etadi [4, 106].

Mazkur tadqiqotda turli badiiy asarlardan olingan nutqiy aktarning illokutiv aktlari va ularning turlari tahlil qilinadi.

Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasidan olingan "Baxtash tavakkal!" [9, 46] parchasida qo'llanilgan nutqiy aktning illokutiv aktida so'zlovchini kelajakdagi harakat yo'nalishiga ogohlantirish illokutiv kuchi mavjudligi sababli direktivlar guruhiga kiradi va "omadini sinab tavakkal qilishidan ogohlantirish"ni ifodalaydi.

"Ammo Sayfi Soqiyevich bu sadoqat ostida yashirinib yotgan narsani yaxshi bilar, ertaga omadi yurishmay qolsa bu odamlarning hech bo'lmaganda yarmisi o'zidan yuz o'girib ketishiga aqli yetar edi." [3, 117] parchasi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Nur borki, soya bor" asaridan olingan bo'lib, ushbu nutqiy aktda xabar berish illokutiv kuchi bo'lib, illokutiv assertiv (reprezentativ) turini ifodalaydi va "Sayfi Soqiyevich bu sadoqat ostida yashirinib yotgan narsani yaxshi bilishi, ertaga ishi o'ngidan kelmay qolsa bu odamlarning hech bo'lmaganda yarmisi o'zidan yuz o'girib ketishiga aqli yetishini anglatish" illokutiv akt hisoblanadi.

Shuningdek, Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida quyidagi "U bir erkak, zo'r bir erkak baxtini bog'lab yuribdi!" [8, 143] nutqiy aktda illokutiv akt "u bir erkak, zo'r bir erkak bo'lsa-da baxtini bog'lab yurgani oilaviy omadsizligi ya'ni oila qurmaganligi haqida xabardor qilish" va unda afsuslanish illokutiv kuchi bo'lganligi uchun ekspressiv turiga kiradi.

Ushbu tahlil natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, illokutiv akt nutqiy harakat mazmunini ifodalashda ahamiyatli sanalib, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotni yoritib berish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot tilshunoslar uchun pragmalingsitika sohasiga doir tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film //UNS Journal of language studies. – 2014. Vol. 03 – №. 01. – P.18.
2. Azimova S.X. Pragmatika va nutqning lingvopragmatik hususiyatlari. 2th International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts. – Germany, 2021. – B.182.
3. Hoshimov O'. Nur borki, soya bor. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977. – B.117.
4. Leech G.N. Principles of pragmatics. – New York: Longman, 1983. – P.106.
5. Peter Wilfred Hesling Smith. Speech act theory, discourse structure and indirect speech acts: work for the degree of doctor of philosophy. – University of Leeds, 1991. – P.8.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.83-91.
7. Searle J.R. A classification of illocutionary acts //Language in society. –1976. – Vol. 5 – №. 1.– P.1-12.
8. Tog'ay M. Oydinda yurgan odamlar. – T.: Nurafshon-kitob-ta'minot, 2022. – B.143.
